

PIRIMQUL QODIROV “AVLODLAR DOVONI” ASARLARINING LINGVO-POETIK XUSUSIYATLARI

Boboyorova Dilnavoz

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA:

Akbar hayoti haqida hikoya qiluvchi «Avlodlar dovoni» («Akbar») romanini 80-yillarda yaratgan. Asarda pok sevgi, insoniy mehru muhabbat, shavqu shijoat tarixiy qahramonlar qiyofasida yorqin aks ettirilgan. “Avlodlar dovoni” romanida Pirimqul Qodirov Humoyunning sulolani mustahkamlash yo‘lidagi mashaqqatli, sinoatli faoliyatini nozik tasvirlaydi.“Avlodlar dovoni” romanida Pirimqul Qodirov Humoyunning sulolani mustahkamlash yo‘lidagi mashaqqatli, sinoatli faoliyatini nozik tasvirlaydi. U og‘alari o‘rtasidagi nizolarni oqilona hal etishga harakat qilsada, amalda buning uddasidan chiqishga qiynaladi.Yozuvchi Humoyunning otasi qurgan sultanat poydevorini mustahkamlash borasidagi faoliyatini xolis tasvirlab, keyingi bosqich — sulolani jahon tamadduni e’tirofiga sazovor qilgan Akbarshoh taqdiriga urg‘u beradi. Akbar ruhida, qalbida hind yurtiga muhabbat nihoyatda kuchli.Ushbu maqolada “Avlodlar dovoni” asari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: Akbar, Humyun, Pirimqul Qodirov, “Avlodlar dovoni ” asari, antroponomilar.

АННОТАЦИЯ:

Роман «Авлодлар Довани» («Акбар»), повествующий о жизни Акбара, он написал в 80-е годы. В произведении чистая любовь, человеческая доброта и страсть ярко отражены в образах исторических героев. В романе «Авлодлар Довани» Пиримкул Кадыров деликатно описывает кропотливую и кропотливую работу Хумаюна по укреплению династии. Хотя он и пытается рационально решать споры между своими лордами, на практике ему это удается с трудом. Писатель беспристрастно описывает деятельность Хумаюна по укреплению фундамента царства, построенного его отцом, и подчеркивает судьбу победившего Акбар-шаха. следующий этап династии дает признание мировой цивилизации. В духе и сердце Акбара чрезвычайно сильна любовь к



индийской земле. В статье приведены комментарии к произведению «Смена поколений».

Ключевые слова: Акбар, Хумюн, Пиримкул Кадыров, произведение «Авлодлар Довани», антропонимы.

ANNOTATION:

He wrote the novel "Avlodlar Dovani" ("Akbar"), which tells about Akbar's life, in the 80s. In the work, pure love, human kindness, and passion are vividly reflected in the form of historical heroes. In the novel "Avlodlar Dovani" Pirimkul Kadirov delicately describes Humayun's painstaking and painstaking work on strengthening the dynasty. Although he tries to rationally solve the disputes between his lords, he has a hard time doing it in practice. The writer impartially describes Humayun's activities to strengthen the foundation of the kingdom built by his father, and emphasizes the fate of Akbar Shah, who won the next stage of the dynasty the recognition of world civilization. gives In Akbar's spirit and heart, love for the Indian land is extremely strong. This article contains comments on the work "Passage of Generations".

Keywords: Akbar, Humyun, Pirimkul Kadyrov, "Avlodlar Dovani" work, anthroponyms.

Atoqli adib Pirimqul Qodirov hayot bilan hamnafas yashab, jamiyatdagi har bir o‘zgarish, yangilanishga o‘z munosabatini bildirar edi. Uning ilk hikoya va ocherklari SAGU(hozirgi O‘zMU)ning sharqshunoslik fakultetida o‘qib yurgan yillariyoq e’lon qilingan. Ijodkor bir necha yil Moskvada sobiq ittifoq Yozuvchilar uyushmasida o‘zbek adapiyoti bo‘yicha maslahatchi lavozimida ishlab, iste’dodli yoshlardan yordamini ayamadi. Xususan, bu haqda ustoz olim Ozod Sharafiddinov “Dovondagi o‘ylar” asarida: “Pirimqul mening tanqidchi bo‘lib tug‘ilishimda doyalik qilgan edi – shunday qilmaganida men o‘zim yurak yutib qachon yozishga kirishar edim-u, undan nima chiqardi — xudo biladi”, deb yozgan. Pirimqul Qodirov sobiq tuzum davrida aksariyat yozuvchilardan ilgariroq shaxsga sig‘inish fojialarini “Uch ildiz” (1959) romanida real ko‘rsatib bergen.

Pirimqul Qodirov insonning inson bo‘lishida o‘z qadrini bilishi bosh omil deb hisoblardi. Sho‘ro davrida jamoa xo‘jaligida mehnat qilgan dehqonlarning biri ikki bo‘limgani, hech qanday qonunga, inson huquqi himoyasiga e’tibor berilmagani, paxtakorlar sahardan tunga qadar tinmay mehnat qilishgani adibning “Meros” qissasida real tasvirlangan. Zahmatkash paxtakor Mamajon Dadajonov haqida yozuvchi dastlab ocherk e’lon qiladi.

Ocherkda davr ruhi, nafasi jonli ko‘rsatib berilgan. Muallif o‘zi yashayotgan jamiyat manzarasini hujjatlilikka asoslangan holda rostgo‘y ifodalashga ahamiyat qaratgan. Ana shu ocherk asosida yozilgan qissada kompozitsion yaxlitlik, badiiy komponentlar uzviyligi yetakchilik qiladi. Qahramon fitrati, falsafiy-axloqiy masalalar, voqeahodisalar teran tahlil etiladi.

“Meros” qissasi bosh qahramoni Yolqin Otajonov lafzi halol, jonkuyar, fidoyi paxtakor-mexanizator. Uning fe'l-atvorini, hayot maslagini muallif sinchi nigohi bilan chizib beradi.

“Erk” nomli qissasida atoqli adib poytaxt qiyofasi, zamondoshlar orzu-o‘ylari, intilishlarini Sattor taqdiri hikoyasi orqali ochib beradi. Loyihachi injener Sattor Roziyaga ko‘ngil qo‘yadi. Ularning ma’naviy dunyosi, hayot maslagi yaqin, shu bois bir-biriga qalban talpinadilar. Biroq Sattor erkini qo‘ldan boy berib, ota-onas xohishiga ko‘ra Oyshaxonga sevmay uylangan. Ko‘ngilsiz qurilgan oila poydevori esa nurab bormoqda.

Oyshaxon sodda qishloq ayoli, mehribon, mehnatkash, oila rishtalarini muqaddas biladigan, qaynonasi ko‘ngliga yo‘l topa olgan “omi” kelin. U Sattoring bemehrligi, sovuqqonligini tabiiy deb biladi, ranjimaydi, xizmatini chin dildan ado etadi. Sattor daraxt bo‘lsa, Oyshaxon chirmovuq misol unga yopishadi, mabodo daraxt qurisa, u ham quriydi.

Sattor ikki o‘t orasida qovriladi: Roziya hamma tomonlama unga mos qiz; Oyshaxon – tobe xotin, o‘g‘lining onasi. Shunday yo‘l tutish kerakki, ikki ayol ham jabr ko‘rmasin. Shu taxlit Sattor kalavaning uchini axtaradi. Oyshaxon erining ajrashish haqidagi xabarini eshitib, “lov” etib yonadi. Ichki g‘alayon izmiga bo‘ysungan ayol o‘zini daryoga tashlaydi. Bu holat voqeа rivojida burilish yasaydi. Mazkur tasvirda inson siyratidagi musbat va manfiy qutb to‘qnashadi. Asar so‘ngida, taqdir taqozosiga ko‘ra, Roziya Oyshaxon bilan yuzma-yuz keladi. Oyshaxon Sattor bilan Roziyaning bir-biriga munosibligini ichida tan olsa-da, sirtiga chiqarmaydi. Negaki,



u ham ayol, baxt qushini uchirib yuborishdan cho‘chiydi. Oyshaxon fojiasi, asardagi dramatik nuqta: “Endi nima qilamiz?” (o‘g‘liga aytayapti-yu, o‘zi yo‘l izlayapti) jumlalarida aniq ifodasini topgan.

Yozuvchining gazchilar hayoti haqidagi “Qadrim” qissasi bosh qahramon Iskandarning inson, shaxs sifatida o‘z o‘rnini topishida Zulayhoning ta’siri kuchli bo‘ladi. U dadil, qat’iyatli, mustaqil fikrlovchi qiz. Iskandar uning: “Siz mustaqil odam emassiz!”, degan tanbehidan achchiqlanib, hunar o‘rganishga astoydil kirishadi... Asarning asosiy g‘oyasi “O‘z qadrini bilmagan, o‘zganing qadrini bilmaydi”, degan hikmatni yodga soladi. Qadr, o‘zlik, ishonch kabi noyob tuyg‘ularni qalbida chuqur his qilgan qahramon ma’nан yetuk shaxs sifatida o‘zini ko‘rsatadi. Iskandar o‘ziga ishonchi ortgandan so‘nggina Zulayhoga munosibligini anglaydi. Qahramon kashf qilgan hayot falsafasi quyidagicha jaranglaydi: “Men endi bilyapman: kishiga hayot qanchalik zarur bo‘lsa, insoniy qadr-qimmat ham shunchalik zarur. Menimcha, hayotda eng muhimi — odamparvar bo‘lish, kishilarimizga yaxshilik qilish, insonning qadr-qimmati uchun ham tinmay kurashish. Chunki kishi o‘z qadrini bilmaguncha o‘z baxtini tanimaydi”.

Yozuvchini har bir asarini ichdan nurlantirib turgan, qahramonlari taqdiriga munavvarlik baxsh etgan Erk, Qadr, Meros kabi tushunchalarni muallif falsafiyestetik mezonda teran badiiy tahlil qilgan.

“Millatimiz o‘z tarixiy ildizlaridan ma’naviy oziq olsa, qaddini tez tiklashi mumkin”, degan xulosaga kelgan adib moziyga nigoh tashlab, buyuk hikmat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyatiga doir ilmiy, badiiy manbalarni sinchiklab o‘rganadi. Hindistonga ijodiy safari davomida bu yurt tarixchi olimlari qalamiga mansub asarlar bilan tanishadi. Ko‘p yillik izlanish, o‘quv va tajribalar yakunlangach, Bobur haqidagi “Yulduzli tunlar” romanining ilk nusxasi mutaxassislar hukmiga havola etiladi.

Asarda XV asr oxiri — XVI asr birinchi yarmida Turon, Hindiston, Afg‘oniston zaminidagi siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy shart-sharoit, ziddiyatlar qamrab olingan. 12 yoshli Boburning hokim etib tayinlanishi, ishonuvchanligi, beg‘uborligi bois tojdorlar tuzog‘iga tushishi, yoshligiga qaramay hayotning katta oqimida suzishi yorqin detal, lavhalarda ko‘rsatib berilgan. Qarindoshlari, suyukli yori, ishongan do‘sti xiyonati unga kutilmagan zarba beradi. Toj-taxt qutqusiga bandi nafs egalari pokdomon yigitni o‘z yurtini tashlab chiqib ketishga majbur qiladilar. Uning barcha





xo'rlikni chidam, matonat bilan yengib, yo'lsizlikdan yorug'likka intilishi romanda ta'sirli ifodalanadi. Umidsizlikni yenggan Bobur afg'on yurtiga ezgu niyat bilan qadam quyib, tinchlik siyosatini olib boradi. Bobur, avvalo, adolatli, bag'rikeng, tanti shaxs sifatida iqtisodiy-maishiy turmushni yuksaltirish, obodonlashtirish, ma'rifatni targ'ib qilishga muvaffaq bo'ladi. Hindistonni egallaganda ham shu aqidasiga rioya qiladi. Ko'p millatli hind xalqining tili, dini, madaniyatiga ehtirom ko'rsatishi elning e'tiboridan chetda qolmaydi. Yozuvchi Boburning bu o'lkada markazlashgan, taraqqiy etgan sultanatni bunyodga keltirganini bosqichma-bosqich badiiy gavdalantirgan. Boburning mamlakat yetakchisi sifatida g'amxo'r, odil, irodali, kechirimli bo'lganini muallif hayotiy lavha, voqea-hodisalar tahlil orqali ko'rsatadi.

Ilm-fan homiysi, bunyodkorlar peshvosi qalbini vatan sog'inchi mudom bezovta qiladi. Shoir tabiatdagi hodisalar, turli noz-ne'matlar, shart-sharoitlarni muqoyasa etarkan, kindik qoni to'kilgan yurti jozibasi, tarovati ohangrabodek uni o'ziga maftun qilaveradi. Yurtidan kelgan har bir xushxabar uni befarq qoldirmaydi. Donishmand shoirning: "Vatanimga o'zim qaytolmasam ham, asarlarim qaytmog'i mumkin. Endigi orzuim – men tug'ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa", degan ezgu niyati romanning tub mohiyatni ifodalaydi.

"Avlodlar dovoni" romanida Pirimqul Qodirov Humoyunning sulolani mustahkamlash yo'lidagi mashaqqatli, sinoatli faoliyatini nozik tasvirlaydi. U og'alari o'rtasidagi nizolarni oqilonqa hal etishga harakat qilsa-da, amalda buning uddasidan chiqishga qynaladi.

Yozuvchi Humoyunning otasi qurgan sultanat poydevorini mustahkamlash borasidagi faoliyatini xolis tasvirlab, keyingi bosqich — sulolani jahon tamadduni e'tirofiga sazovor qilgan Akbarshoh taqdiriga urg'u beradi. Akbar ruhida, qalbida hind yurtiga muhabbat nihoyatda kuchli. U islohotchi sifatida dinlararo mutanosib nuqtalarni aniqlab, hayotga joriy qiladi. Xalqaro munosabatni mustahkamlashga ayricha e'tibor beradi. Akbar davrida hind taraqqiyotining yuqori bosqichi, ilm-fan, madaniyat sohasidagi yutuqlar ko'p manbalarda tilga olinadi. Adib tarixiy romanlari orqali Bobur, uning avlodlari vatanni ardoqlab, qadriga yetib, insoniyatga ezgulik, ma'rifat, himmat nigohi bilan o'rnak bo'lganini to'la badiiy ifodalab beradi. Ma'lumki, yozuvchi bu romanlari bois nohaq ta'na-dashnomlar eshitdi. "Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi" deganlaridek, adibdan avlodlarga yetuk tarixiy



romanlar qoldi, uning an'analari o'z izdoshlarini topdi. Har ikkala roman XX asr o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi.

Istiqlol yillarida Pirimqul Qodirov barakali ijod qildi. Chunonchi, "Til va el" nomli ilmiy badiasida muhim masala — til millat ko'zgusi, g'urur, yurt iftixori ekan nazariy aspektida teran tahlil etiladi, til tarixi, taraqqiyot bosqichlari yozuvchi-adabiyotshunos nigohida baholanadi. Badiada qalam ahli tilni qanday his qilishi, fikr-tuyg'uni aks ettirishi masalasi ko'tarilgan. Yozuvchi so'z san'atining betakror jihatlarini ishonarli, ramzli ifodalarkan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi allomalarning bu boradagi tadqiqotlari mohiyatiga e'tibor qaratadi. Adib til bilan bog'liq mulohazalarni xolis, erkin bayon qiladi. Ilmiy manbalarni sinchiklab chig'iriqdan o'tkazib, to'g'ri, asosli mulohazalarini bildiradi. Barcha zamonlarda tilni e'zozlash, elning noyob boyligini qadrlash, asrash zarurligini har taraflama asoslaydi. Har bir tilning qudrati va afzalliklari shu tilni yaratgan xalqning o'zi bilan birga yashasagina rivojlanib borishini dalillar orqali ko'rsatadi.

Adib o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan behad quvonib, milliy tilning davlat tiliga aylanishi taraqqiyotning asosiy garovi ekanligini dildan his etishini aytadi: "Xalqni millat qilib ichdan birlashtirib turadigan eng zo'r omillardan biri – uning yagona millat tilidir".

Vatan tarixining jonkuyari "Amir Temur siymosi" nomli badiasida sohibqiron Amir Temur shaxsining jahon olimlari tomonidan qay tarzda baholanganligini adolat mezonlariga muvofiq tarzda izohlaydi. "Temur tuzuklari" borasidagi ilmiy asoslanmagan qarash, g'oyalarning puchligini dalillar bilan fosh etadi va Sohibqiron fitratini aniq faktlar, hayotiy dalillar vositasida haqqoniy tasvirlab beradi. "Kuch — adolatda" shiorini dasturulamal aylagan ulug' siyemoning ziddiyatlarga boy hayoti, siyosat, iqtisod, huquq fanlari takomilidagi zurafolik faoliyati ilmiy-badiiy aspektida talqin etiladi.

Pirimqul Qodirovning til masalasini ilmiy-badiiy rakursda yoritgani, Amir Temur fenomenini yaxlit holda xolis baholagani yosh avlod ma'naviy-estetik tafakkurini boyitishga qo'shilgan ulkan hissadir. Chunonchi, jahon temurshunoslari fikrlariga munosabat tarzida yuzaga kelgan badia o'ziga xos betakror asar bo'lib, unda Sohibqironning falsafiy-estetik maslagi to'kis ko'rsatib berilgan. Nazarimizda,

yozuvchining mazkur badialari bundan keyin ham adabiyotshunos, nafosatshunos, faylasuflar diqqatini o‘ziga jalb etaveradi.

XX asr ikkinchi yarmi — XXI asr boshlarida ijod qilgan atoqli adibimiz Pirimqul Qodirov shu kunlarda sakson besh bahorni qarshilagan bo‘ldi. Uning ma’naviy hayoti badiiy asarlarida, boshlagan ezgu ishlarida davom etaveradi. Darvoqe, yozuvchi vafotidan 3 oy oldin men u kishining suhbatlarida bo‘lgan edim. O’shanda ustoz Xudoyberdi To‘xtaboyev, Suyima G‘aniyeva, Abdug‘afur Rasulov, Hamidulla Boltaboyev singarilar yozuvchi va olimlar bilan adabiyot, hayot haqida qizg‘in suhbat qurdilar. Har gal shu uchrashuvni eslaganimda, Pirimqul Qodirovning nuroniy siy়mosi, Safiya onaning ma’sum nigohi ko‘z o‘ngimda gavdalanadi va ulug‘larning har bir suhbatni biz yoshlar uchun hayot sabog‘i, adabiyot darsi ekaniga iqror bo‘laman.

Dastlabki hikoyasi — «Studentlar» (1951). Shundan keyin Pirimqul Qodirov yoshlar hayoti haqidagi «Uch ildiz» (1958, roman), mustabid tuzum sharoitida ichki erkini yo‘qotgan, mutelik dardiga giriftor bo‘lgan qahramonlar hayoti aks etgan «Qadrim» (1961) va «Erk» (1968) qissalarini yozgan. Zamonaviy mavzularga bag‘ishlangan bu va boshqa asarlarida Pirimqul Qodirov 2-jahon urushi yillarda kechgan mashaqqatli hayoti faktlari hamda shu davr haqidagi taassurot va mushohadalaridan samarali foydalangan. Zamonaviy mavzularga bag‘ishlangan «Qora ko‘zlar» (1966) va «Olmos kamar» (1976) romanlarida Pirimqul Qodirov ma’naviy-axloqiy masalalar bilan birga voqelikda, xususan, qishloq hayotida mavjud bo‘lgan jiddiy muammolarga jamoatchilik e’tiborini qaratgan.

Sho‘ro mafkurasi 70-yillarda tarixiy mavzuning yoritilishiga qattiq qarshilik ko‘rsatganiga qaramay, Pirimqul Qodirov Abdulla Qodiriy, Oybek, Shayxzoda, Mirkarim Osim an’analalarini davom ettirib, «Yulduzli tunlar» (1979) romanini yozdi. Yozuvchi bu asarida o‘zbek xalqi tarixining muhim sahifalaridan biri – buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur siy়mosiga murojaat etib, uning murakkab va mashaqqatli hayot yo‘lini tarixan haqqoniy gavdalantirib berdi. Keyinchalik ushbu asarning davomi — «Avlodlar dovonii» (1989) romanini nashr etdi.

Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» («Bobur») va «Avlodlar dovoni» romanlarida Bobur, Humoyun va Akbarning hayot yo‘lini kuzatish orqali Boburiylar sultanatining vujudga kelishi va ravnaq topishini yorqin tasvirlashga erishgan. U





Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th October, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

uzoq o'tmishda va o'zga mamlakatda ro'y bergan voqealarni tasvirlashda o'z fantaziyasiga emas, balki o'zi e'tirof etganidek, «tarix fantaziysi»ga, ya'ni chindan sodir bo'lgan voqealarga ko'proq asoslangan har ikkala asar ham keng kitobxonlar tarafidan samimiy kutib olinganiga qaramasdan, sho'ro mafkurasi tomonidan keskin tanqid qilinib, muallif o'tmishni ideallashtirishda ayblandi.

Paxta yakkahokimligi davrida o'zbek xalqi boshiga tushgan jabru jafolar o'zbek adabiyotida ilk bor «Meros» (1974) qissasida o'z ifodasini topdi. Pirimqul Qodirov shu davrda qissa janrida samarali ijod qilib, bolalar va yoshlar hayotidan olingan «Akramning sarguzashtlari» (1974), «Yayra institutga kirmoqchi» (1979), shuningdek, ma'naviy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan «Najot» («Baxillar va botirlar», 1980) qissalarini ham e'lon qildi. «Ona lochin nidosi» (2000) romanida 15-asrdagi Mavarounnahrning ijtimoiy-madaniy va ma'naviy hayoti keng aks ettirilgan. Yozuvchi so'nggi yillarda «Qalb ko'zlari (badilar, o'ylar, esdaliklar)» (2001) kitobini chop etib, shu yo'nalishdagi yangi badia(esse)lar ustida ish olib bormoqda.

Pirimqul Qodirov adabiyotshunos olim sifatida o'zbek tili va adabiyotining ilmiy-nazariy masalalari bilan shug'ullanib, «Til va dil» (1972), «Xalq tili va realistik proza» (1973), «Til va el» (2005) risolalarini hamda 2 jildli «Adabiyot nazariyasi» uchun «Adabiy asarning tili» va «Adabiy jarayon» boblarini yozdi.

Pirimqul Qodirovning «Qadrim» qissasi asosida «Sening izlaring» (rejissyor R.Botirov) badiiy filmi, «Yulduzli tunlar» romani va «Jon shirin» hikoyasi asosida ko'p seriyali videofilmlar (rejissyor M.Yusupov) suratga olingan. Uning «Bobur» pesasi (rejissyor B. Yo'ldoshev) uzoq yillar mobaynida hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatrida, «Insof» pesasi esa viloyat teatrлari sahnalarida qo'yilgan. Asarlari rus, ukrain, hind, urdu, turk, uyg'ur, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida nashr etilgan.

Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati (1981), «Shuhrat» medali (1994) va «El-yurt hurmati» (1998) ordeni bilan mukofotlangan.

“Avlodlar dovonи” romanida Pirimqul Qodirov Humoyunning sulolani mustahkamlash yo'lidagi mashaqqatli, sinoatli faoliyatini nozik tasvirlaydi. U og'alari o'rtasidagi nizolarni oqilona hal etishga harakat qilsa-da, amalda buning uddasidan chiqishga qiynaladi.

Yozuvchi Humoyunning otasi qurgan sultanat poydevorini mustahkamlash borasidagi faoliyatini xolis tasvirlab, keyingi bosqich — sulolani jahon tamadduni e'tirofiga sazovor qilgan Akbarshoh taqdiriga urg'u beradi. Akbar ruhida, qalbida hind yurtiga muhabbat nihoyatda kuchli. U islohotchi sifatida dinlararo mutanosib nuqtalarni aniqlab, hayotga joriy qiladi. Xalqaro munosabatni mustahkamlashga ayricha e'tibor beradi. Akbar davrida hind taraqqiyotining yuqori bosqichi, ilm-fan, madaniyat sohasidagi yutuqlar ko'p manbalarda tilga olinadi. Adib tarixiy romanlari orqali Bobur, uning avlodlari vatanni ardoqlab, qadriga yetib, insoniyatga ezgulik, ma'rifat, himmat nigohi bilan o'rnak bo'lganini to'la badiiy ifodalab beradi. Ma'lumki, yozuvchi bu romanlari bois nohaq ta'na-dashnomlar eshitdi. "Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi" deganlaridek, adibdan avlodlarga yetuk tarixiy romanlar qoldi, uning an'analari o'z izdoshlarini topdi. Har ikkala roman XX asr o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi.

Istiqlol yillarida Pirimqul Qodirov barakali ijod qildi. Chunonchi, "Til va el" nomli ilmiy badiasida muhim masala — til millat ko'zgusi, g'urur, yurt iftixori ekani nazariy aspektida teran tahlil etiladi, til tarixi, taraqqiyot bosqichlari yozuvchi-adabiyotshunos nigohida baholanadi. Badiada qalam ahli tilni qanday his qilishi, fikr-tuyg'uni aks ettirishi masalasi ko'tarilgan. Yozuvchi so'z san'atining betakror jihatlarini ishonarli, ramzli ifodalarkan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi allomalarining bu boradagi tadqiqotlari mohiyatiga e'tibor qaratadi. Adib til bilan bog'liq mulohazalarni xolis, erkin bayon qiladi. Ilmiy manbalarni sinchiklab chig'iriqdan o'tkazib, to'g'ri, asosli mulohazalarini bildiradi. Barcha zamonlarda tilni e'zozlash, elning noyob boyligini qadrash, asrash zarurligini har taraflama asoslaydi. Har bir tilning qudrati va afzalliklari shu tilni yaratgan xalqning o'zi bilan birga yashasagina rivojlanib borishini dalillar orqali ko'rsatadi.

Adib o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan behad quvonib, milliy tilning davlat tiliga aylanishi taraqqiyotning asosiy garovi ekanligini dildan his etishini aytadi: "Xalqni millat qilib ichdan birlashtirib turadigan eng zo'r omillardan biri – uning yagona millat tilidir".

Vatan tarixining jonkuyari "Amir Temur siymosi" nomli badiasida sohibqiron Amir Temur shaxsining jahon olimlari tomonidan qay tarzda baholanganligini adolat mezonlariga muvofiq tarzda izohlaydi. "Temur tuzuklari" borasidagi ilmiy





asoslanmagan qarash, g‘oyalarning puchligini dalillar bilan fosh etadi va Sohibqiron fitratini aniq faktlar, hayotiy dalillar vositasida haqqoniy tasvirlab beradi. “Kuch — adolatda” shiorini dasturulamal aylagan ulug‘ siymoning ziddiyatlarga boy hayoti, siyosat, iqtisod, huquq fanlari takomilidagi zurafolik faoliyati ilmiy-badiiy aspektda talqin etiladi.

Pirimqul Qodirovning til masalasini ilmiy-badiiy rakursda yoritgani, Amir Temur fenomenini yaxlit holda xolis baholagani yosh avlod ma’naviy-estetik tafakkurini boyitishga qo’shilgan ulkan hissadir. Chunonchi, jahon temurshunoslari fikrlariga munosabat tarzida yuzaga kelgan badia o’ziga xos betakror asar bo‘lib, unda Sohibqironning falsafiy-estetik maslagi to‘kis ko‘rsatib berilgan. Nazarimizda, yozuvchining mazkur badialari bundan keyin ham adabiyotshunos, nafosatshunos, faylasuflar diqqatini o’ziga jalb etaveradi.

XX asr ikkinchi yarmi — XXI asr boshlarida ijod qilgan atoqli adibimiz Pirimqul Qodirov shu kunlarda sakson besh bahorni qarshilagan bo‘lardi. Uning ma’naviy hayoti badiiy asarlarida, boshlagan ezgu ishlarida davom etaveradi. Darvoqe, yozuvchi vafotidan 3 oy oldin men u kishining suhbatlarida bo‘lgan edim. O’shanda ustoz Xudoyberdi To‘xtaboyev, Suyima G‘aniyeva, Abdug‘afur Rasulov, Hamidulla Boltaboyev singarilar yozuvchi va olimlar bilan adabiyot, hayot haqida qizg‘in suhbat qurdilar. Har gal shu uchrashuvni eslaganimda, Pirimqul Qodirovning nuroniy siyoshi, Safiya onaning ma’sum nigohi ko‘z o‘ngimda gavdalanadi va ulug‘larning har bir suhbatni biz yoshlar uchun hayot sabog‘i, adabiyot darsi ekaniga iqror bo‘laman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Davidov Y. J. KO’P MA’NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO’LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.
2. Nazarov Z. PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA O’ZLASHGAN QATLAM SO ‘ZLARNING QO’LLANILISHI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – T. 2. – №. 13. – С. 840-844.
3. Davidov Y. ASPECTS OF DISAMBIGUATION DIFFERENT FROM COGNATE WORDS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 906-909.
4. Бегматов Э., Улуков Н. Наманган, 2006. – Б. 60
5. Бегматов Э., Улуков Н. охиридан – 2008. – 168 б.